

Mustaqil ta'lif va innovatsiya

"Gidromeliorativ tizimlardan foydalanish" kafedrasini tashabbusi bilan talabalarning ilmiy salohiyatini oshirish hamda iqtidorli talabalarni soha bo'yicha ilmiy yangilik va innovatsiyalarni yaratishga yo'naltirish ustuvor vazifalardan biri hisoblanadi. Shu sababli talabalarning qiziqishlarini va shu sohaga bo'lgan intilishini inobatga olib, Turkiya davlati "Yildirim" firmasining "Agrobesttech" MCHJ tashkilotining rahbari Matyakubov Jasur Baxtiyorovich taklif qilindi. "Gidromeloratsiya" fakulteti „Suv xo'jaligida innovatsion texnologiyalar va ulardan foydalanish" yo'naliishi 307-guruh talabalariga sugorish tizimlarining eng yangi texnika va texnologiyalari to'g'risida ma'lumot berildi.



"Agrobesttech" kompaniyasi hozirda O'zbekistondagi tomchilatib sug'orish va yomg'irlatib sug'orish usullarini joriy qilish, fermerlarga tavsiyalar berish bilan shug'ullanadi. Talabalarga tomchilatib va yomg'irlatib sug'orish usullari jarayonlari to'g'risida to'liq ma'lumot berildi. Talabalar sug'orishdagi eng so'ngi innovatsion uskunalar bilan tanishtirildi. Shuningdek, talabalar o'zlarini qiziqtirgan savollariga javob oldilar.



Uchrashuv savol va javob tariqasida bo'lib o'tdi. Tadbir talabalarda katta qiziqish uyg'otib bu kabi tadbirlarni ko'proq tashkil etish va talabalarga ilmiy faoliyatini tashkil etish bilan bog'liq masalalarni kengroq tushuntirish aytib o'tildi. Bunday tadbirlar kafedralarda davom etmoqda.

**GMTF kafedrasи assistenti N.Gadayev axboroti.
TIQXMMI matbuot xizmati**